



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

“YASHIL MAKON” EKOLOGIK MUHITINI RIVOJLANTIRISHDA TA’LIM- TARBIYANING IJTIMOYIY-MA’NAVIY AHAMIYATI

Kalanov Komil

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti, professori

Annotatsiya

Maqolada muallif zamonaviy davrning dolzarb muammolaridan biri bo‘lgan ekologik tarbiya va ekologik madaniyat masalalarining ijtimoiy-ma’naviy jihatlarini tahlil qiladi. Muammo sotsiologik nazariya va amaliyot uyg‘unligida metodologik asosda yoritiladi. Yoshlarning ekologik bilimlarini o‘rganish maqsadida o‘tkazilgan sotsiologik so‘rovnoma natijalari asosida ekologik madaniyat rivojlanish tendensiyalari va uning transformatsion jarayonlari tahlil qilinadi. So‘nggi o‘n yilliklarda ekologik muammolarning murakkablashuvi, ayniqsa suv resurslari bilan bog‘liq masalalarning dolzarbligi ilmiy prognozlar asosida yoritiladi. Shu bilan birga, muammoning davlat darajasidagi ahamiyati va qonunchilikdagi aks etishi ko‘rsatib beriladi. Murakkab ekologik sharoitlarda ilmiy yechimlarni topish uchun aholining, xususan yoshlarning ekologik tafakkurini shakllantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: ekologiya, ekotizim, ekologik tarbiya, ekologik madaniyat, madaniy muvozanat, yoshlar tafakkuri, texnosfera, biosfera.

СОЦИАЛЬНО-ДУХОВНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ В РАЗВИТИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ СРЕДЫ «ЯШИЛ МАКОН»

Каланов Комил

Ташкентский международный университет финансового управления и технологий,
профессор

Аннотация

В статье анализируются социально-духовные аспекты экологического воспитания и экологической культуры как одной из актуальных проблем современности. Методологическая основа исследования строится на единстве социологической теории и практики. На основе результатов социологического опроса, проведённого среди молодёжи, рассматриваются тенденции развития экологической культуры и её трансформационные процессы. Отмечается усложнение экологических проблем в последние десятилетия, особенно в сфере водных ресурсов, что подтверждается научными прогнозами. Также освещается возрастание значимости проблемы на уровне государственной политики и законодательства. Предлагаются рекомендации по формированию экологического мышления у населения, особенно у молодёжи, в условиях сложной экологической ситуации.

Ключевые слова: экология, экосистема, экологическое воспитание, экологическая культура, культурный баланс, мышление молодёжи, техносфера, биосфера.

THE SOCIO-SPIRITUAL SIGNIFICANCE OF EDUCATION IN DEVELOPING THE “YASHIL MAKON” ECOLOGICAL ENVIRONMENT

Kalanov Komil

Tashkent International University of Financial Management and Technologies, Professor

Abstract

This article analyzes the socio-spiritual aspects of environmental education and ecological culture as pressing issues of the modern era. The methodological framework is based on the integration of sociological theory and practice. Using the results of a sociological survey

conducted among youth, the study examines trends in the development and transformation of ecological culture. It highlights the increasing complexity of environmental problems in recent decades, particularly those related to water resources, supported by scientific forecasts. The article also reflects the growing significance of these issues at the level of national policy and legislation. It offers recommendations for fostering ecological awareness among the population, especially youth, in response to complex environmental challenges.

Keywords: ecology, ecosystem, environmental education, ecological culture, cultural balance, youth thinking, technosphere, biosphere.

Ma'lumki, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq muammoli masalalar mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligiga, xususan, iqtisodiy o'sish va kambag'allikni qisqartirish, ekologik va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Ushbu masalada, ayniqsa, ekologik ta'limning muhimligi alohida ahamiyat kasb etadi. Ekologik muammolarning tobora global ahamiyat kasb etib borayotganligi inobatga olinib, so'nggi yillarda muhim ustuvor vazifalar bilan bir qatorda atrof-muhit muhofazasi, ekologik madaniyat, ekologik ta'lim-tarbiya, ekologik ma'rifat masalalariga alohida e'tibor berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi va "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunlariga muvofiq yoshlar ongida ekologik ta'limni rivojlantirishning asosiy tamoyillarini belgilash, ularni izchillik bilan bosqichma-bosqich ta'lim-tarbiya jarayonlariga tatbiq etish dolzarb masalaga aylandi. Ushbu maqsadda ekologik ta'limning samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish, xususan, ekologik ta'lim-tarbiyani yuksaltirish va ekologik bilimlarni targ'ib qilishga oid davlat dasturlari qabul qilindi [1].


Bugungi kunda ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solishning asosiy vazifalari umumiy ishlab chiqarishni ekologik talablarga moslashtirish orqali ekologik vaziyatni barqarorlashtirish va tubdan yaxshilashdan iboratdir. Shuningdek, ishlab chiqarishga energiya va resurslarni tejovchi, kam chiqitli texnologiyalarni joriy qilish, ishlab chiqarishning energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan ishlar ustuvor ahamiyatga ega. Ilmiy tadqiqot natijalari tahlillariga ko'ra, XX asrning 70-yillariga kelib, jahon hamjamiyatida atrof-muhit va tabiat holati, ijtimoiy-maishiy taraqqiyotning ekotizimga salbiy ta'siri, yuzaga kelayotgan ekologik xavfni bartaraf etish masalasi o'ta jiddiy muammo sifatida kun tartibidan o'rin ola boshlaydi. Aynan shu yillarda kishilik jamiyati ilg'or texnologik taraqqiyot va ilm-fan imkoniyatlarining ekologiyaga o'tkazayotgan ta'siri jiddiy tus olayotganligidan xavotirga tushadi.

Globalashuv davrida inson ehtiyojlarini hayotga zarar yetkazmaydigan, normal sharoitlarda qondirish masalalari XXI asrda dolzarb bo'lib turibdi. Bunga nafaqat oziq-ovqat, suv, havo va uy-joy ta'minotiga bo'lgan ehtiyojlar, balki ma'naviy-axloqiy iqlim mo'tadilligini saqlash ham kiradi. Tabiiyki, ekologiyaga nisbatan loqayd munosabat, o'z navbatida, vujudiy ekologiyaning ham buzilishiga olib keladi. Ijtimoiy-ma'naviy va ruhiy jihatdan ekologiya talablari hamda qonunlarini inkor etish, ta'kidlash mumkinki, oxir-oqibatda axloqiy va madaniy muvozanatni izdan chiqarish bilan birga, insonning intellektual tanazzuliga ham sabab bo'ladi. Bugungi zamonaviy dunyoda ekologik vaziyat tibbiy, iqtisodiy va ijtimoiy muammo sifatida barcha davlatlar taraqqiyotiga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazishni boshladi. Shu bois bugungi kunga qadar bevosita inson faoliyati, uning ijtimoiy va iqtisodiy qirralari bilan bog'liq bo'lgan, jamiyatda ekologik barqarorlikni ta'minlash, tabiiy resurslarni asrash, atrof-muhit musaffoligini saqlab qolish yo'lida falsafa, biologiya, tibbiyot yo'nalishlarida ijtimoiy fanlar, xususan, ijtimoiy-falsafiy yo'nalishdagi tadqiqotlar olib borildi va ijobiy natijalarga erishildi.

Dunyo bo'ylab iqlim o'zgarishi kechar ekan, u insoniyatga yangi ekologik tahdid va inqirozlar bilan ijtimoiy chaqiriqlarni e'lon qilmoqda. Jumladan, yer degradatsiyasining kuchayishi, ichimlik suvining taqchilligi, chiqindi muammosi, atmosferada havo ifloslanishining kuchayishi, shaharlarda sanoatning ta'siri natijasida kimyoviy changlanishlarning ortib borishi kabi masalalar global ahamiyatga ega dolzarb muammoga aylanib bormoqda. Kishilik tarixiga

nazar tashlasak, zardushtiylik dinining nodir kitobi “Avesto”da ham insonning tabiatga, yerga, suvga hurmati va eʼzoi yuqori boʻlganligidan, mehr-muhabbat va madaniyat yuksak ekanligidan dalolat beradi. “Avesto”da tabiat obyektlari hisoblangan toʻrtta unsur: yer, olov, suv va havoni ifloslantirish katta gunoh deb qayta-qayta eslatilgan [2; 322]. Unda bu toʻrt unsurga amal qilmagan kimsalarga nisbatan ogʻir jazo belgilangan.

Jamiyatda ekologik madaniyatni yuksaltirish zarurati nafaqat taʼlim tashkilotlari, shu bilan birga oilalar va jamoat tashkilotlarida ham chuqur ekologik bilimlarni talab qiladi. Bilamizki, ekologik tarbiya eng avvalo oilada amalga oshirilishi lozim. Biroq bu borada aholining fikri va amallari hamma vaqt ham bir-biriga oʻzaro mos tushmaydi. Tadqiqot savolnomasida navbatdagi: “Taʼlim-tarbiya masalalarida farzandlaringizga ekologik tarbiya toʻgʻrisida ham pand-nasihat va maslahatlar berasizmi?” degan savolga jami respondentlarning 52,3 foizi “Albatta, farzandlarimizga bolalik vaqtdan ekologik tarbiya va uning ahamiyati toʻgʻrisida nasihat va maslahatlar beramiz” javobini, 17,5 foizi esa “Farzandlarimizga din nuqtayi nazaridan ekologik vaziyatni asrab-avaylash savob ish ekanligini uqtirib kelamiz” javobini bergan. Ishtirokchilarning 16,2 foizi “Farzandlarimiz ekologik tarbiya toʻgʻrisida asosan bogʻcha va maktab bilimlari bilan kifoyalanib katta boʻlishgan (boʻlishadi)” degan fikrni bildirgan, 8,0 foiz fuqarolar esa “Farzandlarimizga ekologik tarbiya toʻgʻrisida nasihatlar beramiz, ammo maslahat berish uchun oʻzimizning ekologik bilimlarimiz yetarli emas” degan fikrlarni bayon etishgan. Ajablanarlisi shundaki, tadqiqotda qatnashgan respondentlarning 3,2 foizi “Bu xususda oʻylab koʻrmaganman” va 2,4 foizi “Javob berishga qiynalaman” degan javoblarni belgilagan.




“Sizningcha, oilalarda ota-onalarning farzandlariga ekologik tarbiya berish hamda ekologik madaniyatni shakllantirishdagi oʻrni va roli qanday boʻlishi kerak?” degan savolga jami respondentlarning 38,9 foizi “Ota-onalar birinchi navbatda oʻzlari ekologik madaniyat toʻgʻrisida maʼlum darajada maʼlumotga ega boʻlishlari kerak” javobini, ishtirokchilarning 19,9 foizi “Inson–tabiat–ekologiya’ turkumidagi rangli muqova va varaqlardagi ensiklopedik lugʻatlar yordamida ota-onalar farzandlari ekomadaniyatini shakllantirishlari mumkin” degan javob variantini, fuqarolarning 18,1 foizi esa “Ota-onalar ekotizimning oʻzgarib borayotganligini, uning salomatlik va genofondga taʼsirini his etishlari, axborotlar manbasiga ega boʻlishlari va uning oqibatlarini farzandlariga yetkazishi” kerakligi haqidagi javoblarni belgilaganlar. Shuningdek, 5,4 foiz respondent “Har yili minglab koʻchat va butalar ekiladi, ammo ularning koʻpi qarovsizlik, suvsizlik va eʼtiborsizlikdan qurib qoladi, shu boʻyicha maxsus koʻrsatmalar dasturi ekotarbiya uchun asos boʻlardi” deb, 2,1 foiz ishtirokchi esa “Ekotarbiya va ekomadaniyat yuzasidan avlodlararo vorisiylik tizimi susayib ketdi, uning tarixiy va milliy ahamiyatini qayta jonlantirish, gul koʻchatlari va tuvakda gullar yetishtirishni ommalashtirish” zarurligi toʻgʻrisidagi

mulohazalarini bildirgan.

Bu xususda ulug‘ mutafakkir Abu Rayhon Beruniyning ilmiy qarashlarida tabiiy muhitdagi dialektik rivojlanishning ilmiy masalalariga oid fikrlar alohida ahamiyat kasb etadi. “Saydana”, “Mineralogiya”, “Hindiston”, “Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar” kabi asarlarida hayvonlar va o‘simliklarning atrof-muhit bilan aloqasi, ularning xulq-atvorlari yil fasllarining o‘zgarishi bilan bog‘liq holda kechishi misollar bilan tushuntirib berilgan. Uning fikricha, yerdagi hayvon va o‘simliklarning yashashi uchun zarur imkoniyatlar cheklangandir, lekin o‘simlik va hayvonlar cheksiz ko‘payishga intiladi. Beruniy yer qiyofasining o‘zgarishi o‘simlik va hayvonot dunyosining o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘ladi, deb hisoblaydi. U tabiiy-ilmiy kuzatish va tajribalariga asoslanib, tabiatdagi hodisalar ma‘lum tabiat qonuniyatlari asosida boshqariladi, deb ta‘kidlaydi [3; 488].

Demak, berilgan javoblar natijalariga ko‘ra ta‘kidlash mumkinki, jamiyatda bir vaqtning o‘zida avlodlararo vorisiylikni ta‘minlovchi davlat dasturlari va ilmiy loyihalarga alohida o‘rin berilishi lozim bo‘ladi (2-rasm).




Ishonch bilan aytish mumkinki, oilalardagi ekologik tarbiyaning ustuvorligi undagi ekologik madaniyat bilan bevosita bog‘liqdir. Ekologik madaniyatni shakllantirishda, tabiiyki, qadriyatlar, urf-odatlar va an‘analarning roli katta. Tadqiqotlarimizda “Sizningcha, oilalarda ekologik madaniyatni shakllantirishda qanday urf-odat va an‘analardan foydalaniladi?” degan savolga respondentlarning 37,7 foizi “Navro‘z’ munosabati bilan bahorda turli xil ko‘chatlar, butalar va gullar ekish udumlari mavjud” javobini, 16,3 foiz ishtirokchilar “Navro‘z’ munosabati bilan har yili kanallar, ariqlar, lotoklar va boshqa suv havzalari hashar yo‘li bilan tozalanadi” javobini, 13,0 foizi esa “Kelinlar va turmush qurish arafasida turgan qizlar har kuni hovli va xonadon atroflarini supurib tozalashadi, gul va ko‘chatlarga suv quyib o‘stirishadi” degan javobni, hamda 10,4 foizi “Erkaklar yovvoyi ko‘chat va butalarni kesib, madaniy holatga keltirishadi, suv havzalarining ifloslanishini oldini olishadi, atrofni har xil chiqindilardan tozalashadi” kabi ijobiy fikr-mulohazalarni keltirganlar.

Mamlakatimizda demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, aholining iqtisodiy va ijtimoiy hayotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar hamda globallashtirish davrida yuzaga kelayotgan mahalliy, mintaqaviy va global ekologik muammolar atrof-muhitni muhofaza qilish, aholi salomatligini himoya qilish masalalari sohasida qonunchilikni yanada takomillashtirishni, yangi qonunlarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Bugungi kunda ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solishning asosiy vazifalari umumiy ishlab chiqarishni ekologik talablarga moslashtirish orqali ekologik vaziyatni barqarorlashtirish va tubdan yaxshilashdan iboratdir. Shuningdek, ishlab chiqarishga energiya va

resurslarni tejovchi, kam chiqitli texnologiyalarni joriy qilish, ishlab chiqarishning energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan ishlar ustuvor ahamiyatga ega. Strategik yo‘nalishlardan biri bo‘lgan yosh avlod ongida ekologiyaga to‘g‘ri munosabatni shakllantirish va ularning diqqatini ekologik muammoga jalb qilish zarur. Ekologik muammolarning oldini olish va bartaraf etish yo‘llarini ta‘lim tizimiga singdirish lozim.

Mahalliy tadqiqotchi P. Berdanovning “Qoraqalpoq oilalarida bolalarning ekologik madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari (o‘smirlar misolida)” mavzusidagi ilmiy ishida pedagogik yo‘nalishda birinchi marta qoraqalpoq oilalari mustaqil tadqiqot predmeti sifatida o‘rganiladi. Ishda qoraqalpoq oilalarida tarbiya topayotgan bolalarni ekologik bilimlardan xabardor etish, tabiat va atrof-muhit o‘zgarishlari, uning sabab hamda oqibatlari borasidagi tasavvurni hosil qilish, shuningdek, ota-onalar o‘rtasida ekologik bilimlarni targ‘ib etish, ularni ekologik faoliyatga jalb qilish orqali oila sharoitida ekologik ta‘lim-tarbiyani tashkil etish borasida muayyan tajribaga ega bo‘lishlariga erishishning ilmiy-nazariy asoslari yaratiladi [4; 152].

Tadqiqotlarda olingan raqamlarga ko‘z yugurtiradigan bo‘lsak, davrlar almashinuvida juda ko‘p samimiy urf-odat va udumlarimiz ko‘rsatkichlari juda pasayib ketganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Shuningdek, 13,9 foiz respondentlar “Keksa nuroniylar o‘zaro maslahatlashib, turli xil yuqumli kasalliklarni keltirib chiqaruvchi, gigiyenaga ta‘sir o‘tkazuvchi muammolarni bartaraf etish uchun jamoaviy nazoratni belgilab berishadi” javobini va 4,5 foiz ishtirokchilar “Bugungi kunda ekotarbiya va ekomadaniyatga oid qaysidir urf-odat va an‘analarimiz borligi to‘g‘risida hech qanday axborot va ma‘lumotga ega emasman” yoki 1,4 foiz holatda “Bizning urf-odat va an‘analarimizda ekotarbiya va ekomadaniyat mavzusiga juda kam e‘tibor qaratilgan” javoblarini yozganlar (3-rasm).



“Yashil makon” dasturlari asosida ekologik sog‘lom muhitni rivojlantirishni o‘rganish maqsadida o‘tkazilgan tadqiqotlar asosida quyidagi taklif va mulohazalarni ilgari surdik:

Birinchidan, “O‘zbekiston Respublikasida ekologiya sohasidagi qonunchilikning sifati va shakllantirish jarayonlari bilan qanchalik tanishsiz?” degan savolga ko‘pchilik ijobiy javob bergan. Xususan, 46,7 foiz “O‘zRda ekologiyaga oid qonunchilik sifati yuqori va u amalda mukammal ishlamoqda” degan javobni berishgan. Hatto, 8,4 foiz ishtirokchining “O‘zR qonunchiligi bazasida ekologiyaga oid bob va moddalar barcha talablarga javob beradi, ammo amaliyotga joriy etilishida tushunmovchilik va oqsoqliklar mavjud” degan javobi aholi biz tadqiq etayotgan jarayon bo‘yicha ma‘lumotga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, tabiatni muhofaza qilish sohasida maishiy chiqindilarni to‘plash va qayta ishlash yuzasidan aholi ongi va madaniyatini belgilangan qonunchilik doirasida muttasil oshirish,

kerak bo'lsa, keskin choralar qo'llashni yo'lga qo'yish lozim. Zero, bu borada ko'plab davlatlar ko'zga ko'rinarli natijalarga erishgani bizga yaqqol misol bo'la oladi. Eng asosiysi, aholining o'zi bu boradagi choralarni qo'llab-quvvatlayotgani o'tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalarida o'z aksini topdi. Shuningdek, milliy bog'larni ko'paytirish, manzarali daraxtlar sonini kengaytirish va har qanday qurilish ishlari olib borilar ekan, birinchi navbatda daraxt va butazorlar ekish uchun kerakli hajmda joy qoldirish imkoniyatlarini standart qilib belgilash lozim ekanligi kuzatildi.

Uchinchidan, sotsiologik tadqiqot natijalari tabiatni muhofaza qilish yuzasidan aholining ekologik dunyoqarashi va madaniyati ancha yaxshi baholanganini ko'rsatadi. Biroq bu borada muammolar yo'qligini ko'rsatmaydi. Xususan, bugungi kunda oilalarda ekologik dunyoqarash va madaniyatga e'tibor nisbatan susayib borganligi, "majburiy mehnat" tushunchasi jamiyatda bir tomonlama qabul qilinib, natijada milliy oilaviy qadriyatlarimizdagi ko'plab ijobiy sifatlar qatori ekologik dunyoqarash va madaniyat tizimi ham izdan chiqib ketganligini ta'kidlayotgan aholimizning fikrlaridan kelib chiqadigan bo'lsak, bu boradagi islohotlarni izchil amalga oshirish lozimligi kuzatiladi.

To'rtinchidan, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalalari yaxshi emasligi nafaqat davlat rahbarlari, balki ushbu o'tkazilgan tadqiqot natijalari bilan ham yana bir bor isbotlandi. Xususan, aholining o'zi tabiiy resurslar, ayniqsa, ichimlik (chuchuk) suv zaxiralaridan oqilona foydalanish madaniyati yuqori darajada emasligini qayd etishgan.

Beshinchidan, so'rovda ishtirok etgan aksariyat insonlar aholi o'rtasida sanitariya-ekologiya nazoratini kuchaytirish lozimligini ta'kidlashganiga ko'ra, bu borada muammolar ko'zga ko'rinarli darajada ekanligini kuzatish mumkin. Xususan, 38,3 foiz respondentlar aholi o'rtasida sanitariya-ekologiya nazoratini kuchaytirish lozimligini, 12,7 foiz aholining sanitariya-ekologiyaga oid bilimlarini kengaytirish kerakligini, 12,6 foiz hudud, joy va tashkilotlarda sanitariya-ekologiya tozaligiga rioya qilinish samaradorligini oshirish zarurligiga e'tibor qaratadilar.

Oltinchidan, mamlakatimizda bugungi kunda yashil makonlarni barpo etish yuqori ko'rsatkichlarda amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, biroq aholi yanada ko'proq yashil makon istayotganini kuzatish mumkin. Xususan, "Bugungi kunda 'Yashil makon'larni barpo etishda nimalarga e'tibor qaratish lozim, deb hisoblaysiz?" degan savolga respondentlarning 31,7 foizi har bir hududning iqlimi va sharoitiga moslab, suv manbalarini hisobga olgan holda daraxt ko'chatlari va butalar ekishni yo'lga qo'yish kerakligini, fuqarolarning 17,6 foizi esa ko'cha yuzlari, tashkilot va idora hududlarida mavjud imkoniyatlar darajasidan kelib chiqib, manzarali daraxtlar va butalar ekilishi, ularning har birini qattiq nazorat ostiga olish zarurligini va respondentlarning 11,2 foizi katta avtomobil yo'llari va trassalari atrofida bir tekis chinorlar va anomal iqlimga chidamli boshqa daraxtlar ko'chatlarini tizimli ekishni yo'lga qo'yish to'g'risida fikr bildirishgan.

Yettinchidan, o'rganish natijalari aksariyat oilalarda farzandlariga bolalik vaqtidan ekologik tarbiya va uning ahamiyati to'g'risida nasihat va maslahatlar berilishi kuzatildi. Savolnomada "Ta'lim-tarbiya masalalarida farzandlaringizga ekologik tarbiya to'g'risida ham nasihat va maslahatlar berasizmi?" degan savol bilan murojaat etilganida 52,3 foiz respondentlar "Albatta, farzandlarimizga bolalik vaqtidan ekologik tarbiya va uning ahamiyati to'g'risida nasihat va maslahatlar beramiz" javobini, ishtirokchilarning 17,5 foizi esa "Farzandlarimizga qadriyatlar nuqtayi nazaridan ekologik vaziyatni asrab-avaylash savob ish ekanligini uqtirib kelamiz" javobini, yana 16,2 foiz respondentlar "Farzandlarimizga ekologik tarbiya to'g'risida asosan bog'cha va maktab bilimlari bilan kifoyalanib katta bo'lishgan (bo'lishadi)" javobini hamda 8 foiz qatnashchilar "Farzandlarimizga ekologik tarbiya to'g'risida nasihatlar beramiz, ammo maslahat berish uchun o'zimizning ekologik bilimlarimiz yetarli emas" kabi fikrlarni qayd etganlar.

Ekologik sog'lom muhitni shakllantirish tizimida umumta'limiy va milliy maqsadlarni, u iyerarxik tuzilishga ega bo'lgani bois, murakkab tizimlarni tasniflash nazariyasi hisoblanadigan

taksonomiyadan foydalanmasdan aniqlashning imkoni mavjud emas. Rossiyalik tadqiqotchi B. Ananyev e'tirofiga ko'ra, individning o'qish jarayonidagi bilimlarining o'sishi uning hayotiy tajribasi bilimlar tizimi bilan uyg'unlashuvi natijasida ro'y beradi [5; 81]. Ekologik madaniyat shakllanayotgan jarayonda yoshlarning o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilimlar tizimi ekologik taraqqiyot nazariyasi sanaladi. Ekologik munosabatlar nazariyasining asosiy g'oyalari va tamoyillarining izchillashuvi hamda bilimlarning zaruriy miqdorining o'sishi muayyan bosqichda sifat o'zgarishlariga turtki bo'lishini inobatga oladigan bo'lsak, uni yoshlar shaxsi ekologik ongi shakllanishi strukturasi asosiy tarkibiy qismi ekani ayon bo'ladi.

Umuman olganda, ekologik vaziyat va "Yashil makon" dasturi doirasida belgilangan huquqiy me'yorlarga e'tibor qaratilsa, shu kungacha tabiatni asrash, ekologik muammolarning yechimi va aholi salomatligini mustahkamlash sohasiga yo'naltirilgan yuzga yaqin qonuniy baza, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan 8 ta Farmon va 5 ta Qaror, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 55 ta Qarori va 8 ta Farmoyishi, shuningdek, mas'ul idoralarning 18 ta me'yoriy-huquqiy aktlari, texnik reglamentlar, uslubiy ko'rsatmalar va yo'riqnomalari qabul qilingan [6; 7]. Ta'kidlash mumkinki, bugunga kelib ekologiya sohasidagi har qanday munosabatlar qator normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasida fuqarolarning ekologik huquq va majburiyatlari yanada mustahkamlandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi 434-sonli "O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori respublika hududlaridagi ekologik muammolar yechimiga ta'lim tizimini joriy qilish bilan hissa qo'shish, o'sib kelayotgan yosh avlodning ekologik savodxonligini oshirish, ekologik ongi va ekologik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish, ekologik ta'lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etish maqsadida qabul qilindi.

Ushbu konsepsiyadan maqsad:

- uzluksiz ta'lim tizimida ekologik ta'limni rivojlantirishning asosiy tamoyillarini belgilash, ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga izchillik bilan bosqichma-bosqich tatbiq qilish va shu asosda ekologik ta'limning samaradorligini yangi bosqichga ko'tarish;
- ta'lim dasturlarini mavjud ekologik muammolar va ularni bartaraf etish vazifalaridan kelib chiqib takomillashtirish;
- ta'lim oluvchilarning e'tiborini umumbashariy ekologik muammolarga qaratish orqali ularning ona tabiatning qayta tiklanmaydigan manbalarini saqlab qolish va ulardan oqilona foydalanish borasidagi mas'uliyatini kuchaytirish;
- ekologik ta'limning samarali shakllari va usullarini ishlab chiqish hamda joriy etish;
- ekologik ta'lim sifatini, kadrlar tayyorlash tizimi samaradorligini hamda barqaror rivojlanish kafolatlari va ustuvorligini ta'minlovchi normativ-huquqiy, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish;
- ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi vakolatli davlat organlari va ta'lim sohasi o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish hisoblanadi.

Ekologik muammolarning tobora global ahamiyat kasb etib borayotganligi inobatga olinib, so'nggi yillarda muhim ustuvor vazifalar bilan bir qatorda atrof-muhit muhofazasi, ekologik madaniyat, ekologik ta'lim-tarbiya va ekologik ma'rifat masalalariga alohida e'tibor berilmoqda.

Ekologik ta'limning dolzarbligi mamlakatimiz tabiati, ekotizimlari va atrof-muhitni beqarorlik hamda izdan chiqishdan asrash, aholining ekologik madaniyatini oshirish, ushbu o'ta jiddiy hayotiy masalalarga aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlar hissa qo'shishi zarurligi bilan belgilanadi. Biroq ekologik ta'limni amalga oshirish jarayonining tizimli tahlili ekologik ta'limni tashkil etishda bu boradagi islohotlarni to'liq ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qiluvchi jiddiy muammo va kamchiliklar ham saqlanib qolayotganligini ko'rsatmoqda.


Globalashuv jarayonining tobora shiddatli tus olishi nafaqat insoniyat imkoniyatlarini

kengaytirmoqda, shu bilan birga barqarorlikka rahna solayotgan, mohiyati va ko‘lamiga ko‘ra transmilliy xususiyatga ega turli ekologik muammolar paydo bo‘lmoqda. Bugun insoniyatning tabiatga nisbatan salbiy munosabatlari oqibatlariga guvoh bo‘lib turibmiz. Dunyoning bir burchida suv toshqinlari, zilzilalar ro‘y berayotgan bo‘lsa, boshqa joyida o‘rmon yong‘inlari kuzatilmoqda. Bu kabi global muammolar tabiat boyliklaridan ekologik omillar hisobga olinmagan holda foydalanish natijasida yuzaga kelmoqda. Bunday sharoitda ekologik munosabatlarda tolerantlik tamoyiliga amal qilinishi zarurligini tarixiy taraqqiyot mantig‘i ko‘rsatib bermoqda. Zero, insoniyat oldidagi global muammolarni hal etishda tolerantlik tamoyili hayotiy zaruratga, ijtimoiy-ekologik barqaror taraqqiyot motiviga aylanib bormoqda.

“Sizningcha, oilalarda ota-onalarning farzandlariga ekologik tarbiya berish hamda ekologik madaniyatni shakllantirishdagi o‘rni va roli qanday bo‘lishi kerak?” degan savolga jami respondentlarning 38,9 foizi “Ota-onalar birinchi navbatda o‘zlari ekologik madaniyat to‘g‘risida ma‘lum darajada ma‘lumotga ega bo‘lishlari kerak” javobini, ishtirokchilarning 19,9 foizi ““Inson–tabiat–ekologiya” turkumidagi rangli muqova va varaqlardagi ensiklopedik lug‘atlar yordamida ota-onalar farzandlari ekomadaniyatini shakllantirishlari mumkin” degan javob variantini, fuqarolarning 18,1 foizi esa “Ota-onalar ekotizimning o‘zgarib borayotganligini, uning salomatlik va genofondga ta‘sirini his etishlari, axborotlar manbasiga ega bo‘lishlari va uning oqibatlarini farzandlariga yetkazishi” degan javoblarni belgilaganlar. Shuningdek, 5,4 foiz respondent “Har yili minglab ko‘chat va butalar ekiladi, ammo ularning ko‘pi qarovsizlik, suvsizlik va e‘tiborsizlikdan qurib qoladi, shu bo‘yicha maxsus ko‘rsatmalar dasturi ekotarbiya uchun asos bo‘lardi” deb va 2,1 foiz ishtirokchi “Ekotarbiya va ekomadaniyat yuzasidan avlodlararo vorisiylik tizimi susayib ketdi, uning tarixiy va milliy ahamiyatini qayta jonlantirish, gul ko‘chatlari va tuvakda gullar yetishtirishni ommalashtirish” zarurligi to‘g‘risidagi mulohazalarini bildirgan. Demak, berilgan javoblar natijalariga ko‘ra ta‘kidlash mumkinki, jamiyatda bir vaqtning o‘zida avlodlararo vorisiylikni ta‘minlovchi davlat dasturlari va ilmiy loyihalarga alohida o‘rin berilishi lozim bo‘ladi (4-rasm).

Bugungi kunda atrof-muhitning ifloslanishi, iqlim o‘zgarishi va tabiiy resurslardan samarasiz foydalanish bilan bog‘liq global muammolar barqaror rivojlanishga e‘tibor qaratish, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida yangi formatdagi mutaxassislar va ekspertlarni tayyorlash, shuningdek, muammolarni hal qilishda innovatsion yondashuvlarni joriy etishni talab etmoqda. Albatta, bu borada hukumatimiz tomonidan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, so‘nggi yillarda ekologik kun tartibi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylantirilib, atrof-muhitni muhofaza qilish, biologik xilma-xillikni saqlash, “yashil” iqtisodiyotga o‘tish hamda qattiq maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish yo‘nalishlarida konsepsiya va strategiyalar qabul qilindi.

4-rasm: Sizningcha, oilalarda ota-onalarning o‘z farzandlariga ekologik tarbiya berish hamda ekologik madaniyatni shakllantirishdagi o‘rni va roli qanday bo‘lishi kerak?



Xulosa qilib aytganda, mazkur murakkab vazifani hal qilish uchun ta'limning barcha bosqichlarida izchil va uzluksiz ekologik ta'lim hamda tarbiya tizimini yo'lga qo'yish zarur. Bu, eng avvalo, ta'lim muassasalarining vazifasidir. Shu bilan birga, bu oilaning va shaxsni shakllantirishda muhim o'rin tutadigan mahalla va jamoat birlashmalari, ommaviy axborot vositalarining ham eng muhim vazifasidir. Ekologik muammolarning globallashuvi kuchayib borayotgan bir sharoitda fuqarolik jamiyatining ushbu institutlarini atrof-muhitni muhofaza qilishga jalb etish, iqlim o'zgarishiga moslashish, ekologik madaniyatni yuksaltirish, yoshlarning ekologik ongini shakllantirish, ta'lim muassasalarida ekologik ta'limning uzluksizligini ta'minlash va ekologik madaniyatni yuksaltirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rishga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 oktabrdagi "2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5863-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabrda "Respublikada ko'klamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-46-sonli Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 dekabrda "2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-son qarori.
4. Bobayev H., Dustjonov T., Hasanov S. *Avesto — Sharq xalqlarining bebaho yodgorligi*. — Toshkent, 2004. — 322 bet.
5. Al-Beruniy Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad. *Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar*. — T.: Fan, 1968. — 488 bet.
6. Berdanova F. U. *Qoraqalpoq oilalarida bolalarning ekologik madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari (o'smirlar misolida)*: ped. fan. nomz. dis. — T.: O'zPFITI, 2005. — 152 b.
7. Egamberdiyeva N. M., Norqulov H. D. va b. *Oilalarda "Yashil makon" ekologik sog'lom muhitini rivojlantirish shakllari va uslublari*. — Toshkent, 2024. — B. 7.
8. Ананьев Б. Г. *О проблемах современного человекознания*. — М.: Наука, 2007. — С. 81.